



UDK: 811.512.1'367

Shoxida DAVLETOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shoxidadavletova0@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-4103-9983?lang=en>

UrDU professori, DSc Sh.Norbayeva taqrizi asosida

GAP - KIRITMALARNING GAPDA QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada gap-kiritmalarning nisbatan mustaqil, grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan sintaktik konstruksiyalardan iborat bo'lib, gap ichida va gap oxirida qo'llana olishi tahlil qilingan. Shuningdek, gap-kiritmalarning sodda gap shaklida va qo'shma gap shaklida kelishi va ularning grammatik tuzilishi gapda ifodalanish xususiyatlari ham batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: sodda gap-kiritmalar, yig'iq gap shaklidagi kiritmalar, yoyiq gap shaklidagi kiritmalar, qo'shma gap-kiritmalar, murakkab qo'shma gap shaklidagi gap-kiritmalar, ko'chirma gap shaklidagi kiritmalar, haqiqiy kiritmalar, nisbiy kiritmalar.

ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ПРЕДЛОЖЕНИЯ СТАТЕЙ В ПРЕДЛОЖЕНИИ

Аннотация

В данной статье анализируется возможность применения предложений-вставок как внутри предложения, так и в конце предложения, состоящих из относительно независимых, грамматически и интонационно сформированных синтаксических конструкций. Также подробно описаны особенности появления придаточных предложений в виде простых предложений и наречий, а также их грамматическая структура, выраженная в предложении.

Ключевые слова: простые вставки предложений, вставки в форме сложного предложения, вставки в форме распространенного предложения, вставки в виде составного предложения, вставки в форме сложного предложения, вставки в форме отрывного предложения, фактические вставки, относительные вставки.

THE FEATURES OF THE USE OF SENTENCE INSERTIONS IN A SENTENCE

Annotation

This article analyzes whether sentence entries consist of relatively independent, grammatically and intonationally formed syntactic constructions and can be applied within and at the end of a sentence. The arrival of sentence entries in the form of a simple sentence and in the form of a compound sentence and their grammatical structure in the sentence are also detailed.

Key words: simple sentence-entries, entries in the form of an aggregate sentence, entries in the form of a spread sentence, joint sentence-entries, sentence-entries in the form of a complex compound sentence, entries in the form of an extract sentence, actual entries, relative entries.

Kirish. Gap-kiritmalar so'z-kiritma va birikma-kiritmalarga nisbatan ko'proq qo'llanadi. Gap-kiritmalar nisbatan mustaqil, grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan sintaktik konstruksiyalardan iborat bo'lib, gap ichida va gap oxirida ham qo'llana oladi. Biroq ular asosiy gap tuzilishidan tashqarida, ammo unga mazmunan aloqador bo'lgan mustaqil gap sifatida qo'llanishi jihatidan so'z-kiritma va birikma-kiritmalardan ajralib turadi. Ular o'rtasidagi munosabatni ma'lum darajada yonma-yon kelgan mustaqil gaplar o'rtasidagi munosabatga o'xshatsa bo'ladi. Gap-kiritmalar grammatik shakllanishi, intonatsiyasi va mustaqilligi jihatdan odatdagi gaplardan uncha farq qilmaydi; ulardagi intonatsiya ham, pauzaning xarakteri ham mustaqil gaplar intonatsiyasi va ular o'rtasidagi intonatsion uzilishga yaqin. Bu, ayniqsa, gap oxirida yoki gaplar o'rtasida kelgan gap-kiritmalarda aniq seziladi. Bunda ularning kiritilganligi, nutq jarayoniga nisbatan yo'l-yo'lakaylik xarakteri o'zidan oldingi va keyingi gaplar, umuman kontekst mazmuniga nisbatan belgilanadi. Gap oxirida yoki gaplar o'rtasida o'rin olgan

gap-kiritmalar, odatda butun gap mazmuniga yoki bir nechta gaplar, hatto butun abzas mazmuniga aloqador bo'lib kelishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi. Kiritmalarni kirish konstruksiyalardan farqlab, ularni mustaqil sintaktik kategoriya sifatida alohida olib qarash zarurligi kirish gaplarni o'rganishga bag'ishlangan dissertatsion ishlarda ta'kidlanadi. Л.Г.Хатиашили kiritma gaplar ba'zan nutq egasining o'ziga tegishli bo'lmasligi – gap tarkibiga ikkinchi bir shaxs tomonidan kiritilishi hollari bilan kirish gaplardan farq qilishini qayd etadi [1]. Ayrim tekshiruvchilar kirish va kiritma gaplar asosiy gap bilan birgalikda qo'shma gapni hosil etadi, deb ko'rsatadilar [2]. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, А.М.Земский, С.Е.Крючков, М.В.Светлаевlarning darsligida kirish so'z va so'z birikmalari sodda gap bahsida berilgani holda, kirish gaplar qo'shma gap bahsida beriladi [3].

Shuningdek, kiritma gaplarning shakl jihatdan ergash gap turlarining birortasiga mos kelishi mumkinligi

ham ko'pchilik tekshiruvchilar [4] tomonidan rus, ingliz va nemis tillari ma'lumotlari asosida ko'rsatib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada gap-kiritmalarning turlari va gapda qo'llanilish xususiyatlari badiiy adabiyotlardan olingan misollar bilan yoritildi. Tadqiqot uchun zarur ma'lumotlarning ilmiy bayoni tavsifiy yo'l bilan berildi. Tadqiqot oldiga qo'yilgan asosiy muammoning aniq yechimi distribyutiv tahlil metodi orqali belgilab olindi.

Natija va muhokama. Gap-kiritmalar ishtirok etgan sintaktik tuzilmalar sodda, yig'iq gaplar, shuningdek, bir tarkibli yoki to'liqsiz hamda qo'shma gapning turli ko'rinishlaridan biri shaklida bo'lishi mumkin. Gap-kiritmalar sintaktik konstruktsiya ichida kelganda odatda, gapning biror bo'lagi yoki biror qismiga oid bo'lib, ularning kiritilganlik xarakteri gap oxirida kelgan kiritmalarga nisbatan kuchli bo'ladi. Grammatik va intonatsion jihatdan bir butun sintaktik qurilma komponentlarini bir-biridan ajratib, uzib qo'yadi: grammatik va intonatsion butunlik sifatida tugal fikr anglatadi. Biroq tayyor gap tuzilmasiga kiritilganligi, gapning biror bo'lagiga aloqadorligi, uning ikkinchi bir tomonini izhlashi, tushuntirishi, qo'shimcha ma'lumot orttirishi bilan odatdagi gaplardan ajralib turadi.

Gap-kiritmalar so'z va birikma-kiritmalardan faqat tuzilishi jihatidagina farqlanib qolmay, balki qo'llanish doirasi, nutq uslublarida ishlatilishi hamda ifodalagan mazmunning xilma-xilligi, stilistik ahamiyati bilan ham ajralib turadi. Shuningdek, so'z bilan qo'shimcha orasiga kiritilmasligi, hamda asosiy gap tuzilishidan tashqarida, ya'ni gap oxirida, gaplar o'rtasida, hatto alohida abzas tarzida qo'llana olishi bilan ham so'z va birikma kiritmalardan farq qiladi.

Gap-kiritmalar ko'pincha darak gaplar tuzilmasi ichiga kiritilgan yoki darak gaplar mazmuniga aloqador bo'ladi. Gap-kiritmlarning undov, so'roq, buyruq gaplar tarzida qo'llanishi juda kam uchraydi.

Gap-kiritmalarning ifodalagan ma'nolari xilma-xil bo'lgani kabi ular tuzilishi jihatdan ham turlichadir, ya'ni sodda va qo'shma gap turlaridan biriga mansub bo'ladi.

Sodda gap shaklidagi kiritmalar. Tuzilishi jihatdan sodda gap shaklidagi kiritmalar qo'shma gaplar hamda birdan ortiq mustaqil gaplarning guruh holida kiritma sifatida kelishiga nisbatan ko'proq uchraydi. Kiritmalarning sodda gaplar tarzida qo'llanishini, ularning nutq jarayonida turli izoh va qo'shimcha ma'lumotlarni qisqa va ixcham shakllarda bayon qilish hamda ikkinchi bir sintaktik tuzilma tarkibiga kiritilish xususiyati bilan izhlash mumkin. Sodda gap-kiritmalarning o'zi grammatik tuzilishiga ko'ra bir tarkibli yoki ikki tarkibli konstruktsiyalardan iborat bo'ladi.

Ikki tarkibli gap shaklidagi kiritmalar asosiy sintaktik tuzilma tarkibiga sodda yoyiq, sodda yig'iq gaplar tarzida ham to'liqsiz yoki murakkablashgan sodda gaplar hamda ergash gaplar shaklida ham kiritilishi mumkin.

a) ikki tarkibli yoyiq gap shaklida kelgan kiritmalar: U bejirim tufli bilan yerni duk-duk bosib (bu duk-duklardan Qahramonning yuragi go'yo mix qoqilayotgandek zirqirab ketdi) mashina tomon yurdi (O.Yoqubov).

b) ikki tarkibli yig'iq gap shaklida kelgan kiritmalar: Kelganlarning biri – novchasi partbyuro a'zolaridan biri (sekretar kasal edi), semizi bosh agronom edi (Shuhrat).

d) murakkablashgan sodda gaplar shaklida kelgan kiritmalar, odatda, gap bo'laklari bilan grammatik bog'liq

bo'lmagan elementlar (kirishlar, undalmalar) hamda uyushiq bo'laklar bilan kengaygan holda qo'llanadi: Internatda yurib, bo'yim cho'zilib, turmushning baland-pastiga aqlim yetadigan bo'lib qoldi, shekilli (qiyinchilik, men sizga aytсам, og'ayni, yosh bolaga ham tez aql kiritar ekan), bir kuni uyga borib onamning tirikchiligini ko'rdimu, yuragim ezilib ketdi (S.Anorboyev).

e) to'liqsiz gaplar shaklida kelgan kiritmalar. Kiritma ifodalayotgan mazmunning aniq va to'la anglashilishida asosiy gap tuzilishi, ayniqsa, izohlanayotgan gap bo'lagi yoki qismining katta xizmati bo'ladi: kiritmaning qisqa va ixcham shaklida kelishiga sharoit ham yaratadi. Buni gap-kiritmalarning ayrim bo'laklari, hatto qismlarining tushirib qoldirilishida aniq ko'rish mumkin. Tushib qolgan bo'laklar ma'nosi esa izohlanayotgan gap bo'lagi yoki butun gap mazmunidan anglashilib turadi. Bunday kiritma konstruktsiyalar ikki tarkibli to'liqsiz gaplar shaklida qo'llangan bo'ladi: Bir mahal yana ko'zi ilinib (nechanchi marta!) uyg'onsa, qorni ochib qolibdi (Shuhrat).

f) kiritma gaplar asosiy sintaktik tuzilma tarkibiga ergash gaplar shaklida ham kiritiladi [5]. Bunday kiritmalar grammatik skallanishi, mazmuni va hatto intonatsiyasi jihatdan ergash gaplarga juda o'xshash bo'ladi: Kishikishiga o'xshashi mumkin, xotirjam bo'ling, biz siz aytgan mayorni ham (tirik bo'lsa) ushlab olamiz (Shuhrat).

2. Kiritmalar bir tarkibli gap shaklida kelganda ko'proq muallifning his-hayajoni, tajjubi, hayratlanish va quvonchi kabi emotsional holatlarni ifodalab keladi. Ular, odatda, modal ma'no anglatuvchi so'z va so'z birikmalaridan iborat bo'lib, asosiy sintaktik tuzilma ichida qo'llaniladi: A'zoyi badanimdan lovullab o't chiqib borardi, Muqaddas esa (ajabo!) go'yo hech narsani sezmas...edi (O.Yoqubov).

Ko'rinadiki, bunday kiritmalar tom ma'nodagi qo'shimcha ma'lumot, izoh berish ma'nosini ifodalamay, balki subyektiv-emotsional munosabatni, bayon qilinayotgan voqea-hodisaga bo'lgan qarashini ko'rsatadi; o'quvchi (tinglovchi) ning e'tiborini tortishga, nutq mazmunining emotsional-ekspressivligini oshirishga hizmat qiladi; nutq egasining his-hayajoni, taassuroti yoki uning hayoliga kelgan biror fikrning xarakteriga ishora qiladi. Bunday so'zlarning kiritma sifatida qo'llangan sintaktik konstruktsiyalar tarkibida kelishini ham uchratish mumkin: Tiyrak ko'zlarida tashvish bilinib turgan Gulchehra (voajab, qizning to'lin chiroyini ko'ring!) konservatoriya ostonasida o'zini tortadi (S.Azimov).

Qo'shma gap shaklida kelgan kiritmalar. Bu turdagi kiritmalar sodda gap shaklidagi kiritmalarga nisbatan kam qo'llanadi. Hamda ular o'ziga xos intonatsiya va mazmun doirasining nisbatan kengligi bilan ham ajralib turadi.

Qo'shma gap shaklidagi kiritmalar ham tuzilishi va kuzatilgan maqsadiga ko'ra turlicha bo'lgan sintaktik konstruktsiyalarning ichida va oxirida kela oladi. Hatto ular tuzilishi jihatidan o'zlari kiritilgan asosiy gap tuzilishidan hajman keng bo'lishi – sodda gaplar tarkibida kelishi mumkin: Bu mo'tabar qariya (otaning 70 yoshi hisobga olinmasa, aslida u mo'ysafidga o'xshamaydi: hali tetik, yonoqlari qip-qizil, gaplari keskir, lablaridan hazil mutoyiba arimaydi) Sadridin Ayniy bilan ham-xona bo'lgan ("Guliston").

Kiritma vazifasida qo'shma gaplar kelganda asosiy gap bo'laklari yoki qismlari o'rtasidagi uzilish ancha kattaroq bo'ladi. Bunda gap-kiritmalar intonatsiya va tuzilishi jihatdan odatdagi qo'shma gaplardan deyarli farq qilmaydi. Ular qo'shma gap turlarining birortasi shaklida –

bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gaplar hamda bog'lovchisiz yoki murakkab qo'shma gaplar sifatida qo'llanishi mumkin:

bog'langan qo'shma gap shaklidagi gap-kiritmalarning asosiy gap mazmuniga aloqadorligi, odatda, olmoshlar va ayrim gap bo'laklarini takrorlash orqali anglashiladi: Faqat bitta narsa – buni kutilmaganda Komil o'rta tashladi-yu, Inobat ham qo'llab chiqdi – urug'lik masalasi sal o'ylantirib qo'ydi (O.Yoqubov).

ergashgan qo'shma gap shaklidagi kiritmalar ko'proq sabab natija, qiyoslash, payt va o'rin kabi ma'nolar bilan bog'liq izoh va qo'shimcha ma'lumotlarni ifodalaydi: U uylanganidan keyin, onam bilan birga boshlab tog'alarim turgan qishloqda – Shofrikon rayonining Mahallaibolo qishlog'ida yashagan (chunki u tomonlarda tegirmon charxi yasovchi ustalar kam bo'lib, bu kasb yaxshi foyda berar ekan) (S.Ayniy).

bog'lovchisiz qo'shma gaplar shaklidagi gap-kiritmalar: Ko'zim oldidan Muattarning (“opa” deyishga hech tilim bormaydi – men undan yosh emasman) ruxsori ketmaydi (U.Nazarov).

murakkab qo'shma gaplar shaklidagi gap-kiritmalar: Akbarxo'ja amaki (bu kishi mullanamo bo'lib, kasbi oynachilik; dadamga o'zini juda do'st tutardi: o'tgan

yili 90 yoshlarda vafot etdi) bir kuni menga shunday hikoya qilgan edi (H.Qodiriy).

ko'chirma gap shaklidagi gap-kiritmalar: Men unga...bola bilan boshqa qishloqqa qatnash oson bo'lmasligini aytdim, bu ahddan qaytishni maslahat berdim. (Dilimdan esa: “Tag'in biron firibgarning tuzog'iga ilinmasaydi!” – degan havotir kechdi). (H.Nazir).

Gap-kiritmalarni semantik va struktur-intonatsion belgilarga ko'ra ayrim turlarga guruhlash mumkin.

Gap-kiritmalar grammatik va intonatsion jihatdan tugal sintaktik konstruksiya – mustaqil gaplar sifatida ham, ergash gaplar, ilovali tuzilmalar sifatida ham kiritilgan bo'ladi. Mustaqil gaplar orqali ifodalangan kiritmalarni shartli ravishda haqiqiy kiritmalar, ikkinchi tur gap-kiritmalarni esa nisbiy kiritmalar atamasi bilan yuritish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kiritma konstruksiyalar, gap-kiritmalar tarzida qo'llana oladi. Gap-kiritmalar asosiy gap ichida va oxirida ham, gaplar orasida va alohida abzas tarzida ham kela oladi. Gap-kiritmalar so'z va birikma-kiritmalarga qo'yilgan talab nuqtai nazaridan kelib chiqib qaraganda, asosan parallel bo'lmagan kiritmalar turiga kiradi.

ADABIYOTLAR

1. Хатиашвили Л.Г. Вводные предложения в современном русском литературном языке, АКД, Тбилиси, 1953, стр. 7-10.
2. Седун Е.П. Сложные конструкции с пояснительно-вводным предложением в современном русском языке (“Филологические науки”, 1959, №1, стр. 110).
3. А.М.Земский, С.Е.Крючков, М.В.Светлаев. Русский язык, ч. II, синтаксис, изд. 6-е, М., Учпедгиз, 1963, стр. 69-72,161.
4. Юферева З.С. Бессоюзная причинная связь в современном русском языке (“Ученые записки МГПИ им. В.И.Ленина” вып. 10. № 148, М., 1960); М.В.Донецкая. Члены предложения, которые могут поясняться придаточными обстоятельственными предложениями причины (на материале английского языка) – Сб.: “Вопросы языкознания, грамматики, лексикологии и стилистики”, т. 25, М., 1961, стр. 144 – 151.
5. Щеболева И.И. Вставочные конструкции в современном русском литературном языке, АКД, М., 1955, стр. 8; Т.Р.Котляр. Вставочные конструкции в современном английском языке, Саратов, изд. Саратовского госуниверситета, 1962, стр. 14.
6. Аникин А.И. Вставочные конструкции в с присоединительным значением в современном русском языке (“Ученые записки МГПИ им. В.И.Ленина”, Современный русский язык, № 296, М., 1968, стр.40).
7. Абакумов С.И. Современный русский язык, М., 1942, стр. 148; Он же Методика пунктуации, М., 1954, стр. 22.
8. Исмоков. Ҳозирги замон ўзбек тилида иловали конструксиялар (“Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари”,2-китоб, “ФАН”, Тошкент, 1961).